

**BOSHLANG`ICH TA`LIM SIFATINI OSHIRISHDA DARS  
ISHLANMALARINING AHAMIYATI**

*Boliyeva Bahora Muzaffar qizi*

*Samarqand Davlat Universiteti dotsenti M.Raxmatov*

*Pedagogik ta`lim fakulteti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o`rta maktabning eng asosiy bo`g`ini bo`lgan boshlang`ich sinflarda ta`lim sifatini oshirishda dars ishlanmalarining ahamiyati texnologiya fanidan o`tiladigan qog`oz va karton bilan ishlash texnologiyasini o`rgatish mavzusi bo`yicha ko`rsatib berilgan .

**Kalit so`zlar:** boshlang`ich ta`lim, ta`lim sifati, qog`oz, karton, texnologiya, dars ishlanmasi, qog`oz va karton turlari, PVA yelimi, lak, makirovka, dermatin, origami, traferat, shablon.

Har qanday ijtimoiy jamiyatga yosh avlod ta`lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi.Ta`lim-tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo`nalishi, ijtimoiy munosabatlар mazmunidan kelib chiqib belgilanadi.Bugungi kunda O`zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan ta`lim-tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Bizga ma`lumki, uzlusiz ta`lim tizimini yanada takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash siyosatini rivojlantirish hamda ta`lim moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, barkamol avlod kadrlarini tayyorlashda asosiy shartlardan biri hisoblanadi va bu davlat ahmiyatiga ega bo`lgan masaladir.Shuning uchun, mamlakatimiz rahbari sifatida Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta`lim sifatini oshirish masalasiga juda katta e`tibor bermoqda.Misol sifatida 2017-yil 14-yanvarda bo`lib o`tgan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida davlatimiz rahbari ta`lim-tarbiya tizimida o`quv rejasi dasturlarini tubda qayta ko`rib chiqish zarurligini qayt etgan edi, chunki ta`lim muassasalarida darslarni samarali tashkil etishda yetuk kadrlar bilan bir qatorda ta`limga doir me`yoriy hujjatlar, o`quv-uslubiy ta`minotining o`rni katta.Prezidentimiz tomonidan o`qituvchining zamonaviy metodologiyasini yaratish va amalga joriy etish, o`quvchilarning ongli ravishda kasb-hunar tanlash ishtiyoqini kuchaytirish, darsliklarni yaratishga butunlay yangicha yondashish kabi vazifalar ayni shu maqsaddan kelib chiqqan holda qo`ymoqda.Xuddi shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-yanvardagi “Umumiyl o`rta, o`rta maxsus kasb-hunar ta`lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-5313-sonli farmoni, 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta`lim tizimida boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorini , 2020-yilda ishlab chiqilgan “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni, O`zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O`zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta`lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirishning chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-6108-sonli qarorini, “Yangi O`zbekistonning 2022-2026-yillarga mo`ljallangan taraqqiyot strategiyasi”, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi “Xalq ta`lim tizimini isloh qilish bo`yicha qo`sishimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PF-22-sonli farmoyishini va boshqa hujjatlarni olishimiz mumkin.

Demak, yuqorida ko`rib o`tilgan barcha hujjatlarda ta`lim sifatini oshirish asosiy vazifa qilib oshirilmoqda. Masalan, taraqqiyot strategiyasida o`rta ta`lim tizimini zamon talablariga moslashtirish maqsadida umumiy o`rta ta`lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish uchun davlat byudjetidan 605 mlrd so`m ajratishdi. 141000 ta yangi o`quv o`rinlarini yaratish va ularning sonini 2026-yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish rejalashtirilgan.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, “Xalq ta`limi tizimini isloh qilish bo`yicha qo`sishimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi farmoyishida xalq ta`limini yanada rivojlantirish, sohaga doir yangi tashabbuslarni ilgari surish va ularni qo`llab-quvvatlash, ta`lim-tarbiya sifatiga bevosita va bilvosita ta`sir qilish mumkin bo`lgan masalalarni hal qilish, ma`sul vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish bo`yicha aniq maqsad va vazifalar belgilab berildi.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, Prezidentning 2023-yil 28-fevraldagi farmoni bilan 2023-yil “Insonga e`tibor va sifatli ta`lim yili” deya tasdiqlandi. Ta`lim sifatini oshirish, sohani ilg`or xorijiy tajriba asosida isloh qilish maqsadida:

2023-yil 1-sentyabrdan boshlab har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o`rta ta`lim muassasasida o`quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o`rgatish amaliyoti bosqichma-bosqich yo`lga qo`yildi. 2023-2024-o`quv yilidan boshlab, boshlang`ich sinf o`quvchilarini ilg`or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar bo`yicha o`qitish yo`lga qo`yildi.

Ma`lumki, o`rta ta`lim maktablarida boshlang`ich ta`lim eng asosiy bo`lib hisoblanadi, chunki boshlang`ich ta`lim qancha sifatli berilsa o`quvchilarni keyingi ta`lim olishlari shuncha samarali bo`ladi. Shuning uchun “Ta`lim to`g`risida”gi qununning 9-moddasida shunday deyilgan:

“Boshlang`ich ta`lim ta`lim oluvchilarga bilim, malaka va ko`nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan”. Haqiqatan ham boshlang`ich ta`lim keying ta`limni sifatli bo`lishida katta rol o`ynaydi. Boshlang`ich ta`lim o`quv darsliklarida mavzular bo`yicha materiallar yetarli darajada kengroq berilgan emas. O`quvchilarning fan to`garaklarida va mustaqil ta`lim omillari uchun materiallar yetarli darajada emas. Shuning uchun mavzu bo`yicha tayyorlanadigan dars ishlanmalari katta ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada biz boshlang`ich sinflarda texnologiya darslarining sifatini

oshirishda dars ishlanmalarining ahamiyatini o`quvchilarga qog`oz va karton bilan ishslash texnologiyasini o`rgatish mavzusi misolida ko`rib o`tamiz.

Ma`lumki, boshlang`ich sinflarda o`quvchilar eng avvalo faqat texnologiya darsi mashg`ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to`qnash keladigan materiallar bilan ham tanishadilar. Qog`oz va karton boshlang`ich sinf texnologiya darslarida eng ko`p qo`llaniladigan materiallardir. Qog`oz va karton bilan ishslash o`quvchilarni garmonik rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, rangli qog`oz bilan ishslash ijodni rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlik, diqqat va tasavvurni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo`l mehnati, chamalash va rangni sezishni o`rgatadi. Turli xil qog`ozlardan kitoblar, oynomalar chiqarishda foydalanishini barcha o`quvchilar yaxshi biladi. Shuning uchun ham mehnat ta`limi darslarida o`qituvchi o`quvchilarning diqqat-e`tiborini ular foydalanadigan qog`ozning turmushda tez-tez uchraydigan va qo`l mehnati darslarida ishlatiladigan turlariga jalb qilib borishi lozim.

O`quvchilarga qog`oz va kartonning quyidagi turlari borligini aytish maqsadga muvofiqdir.

Qog`oz turlari: yozuv qog`ozi, rangli qog`oz, gazeta qog`ozi, daftar qog`ozi, millimetrali qog`oz, baxmal qog`oz, qum qog`oz, oboy gul qog`ozi, bosma qog`oz, chizmachilik qog`ozi, rasm qog`ozi.

Karton turlari: karton qog`oz, oq karton, sariq karton, kulrang karton, rangli karton.

Endi qog`oz va kartondan traferat va shablon yasash texnologiyasiga to`xtalib o`tamiz.

### **Qog`oz va kartonni qayta ishslash jarayonida traferat, shablon tayyorlash texnikasi**

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, boshlang`ich sinf o`quvchilarini har bir o`tkaziladigan mashg`ulotlarda mustaqil ishslashga, qo`l muskullarini rivojlantirishga o`rgatib borish zarur. O`qituvchi har bir o`tkaziladigan mashg`ulotiga ijodiy yondashgan holda va o`z mahoratini ishga solgan holda yangilik yarata olishlari lozim.O`quvchilar qo`yilgan vazifaga qarab, ish jarayonlarini oddiydan murakkabga qarab o`zlashtirib boradilar.Boshlang`ich sinf o`quvchilariga qog`oz va kartondan foydalanib, turli xildagi buyumlar yasash o`rgatiladi.

Traferat yasash uchun kerak bo`ladigan ish qurorollari:

- 1.Rangli suratlar
- 2.Kalka qog`ozi
- 3.Qoraqalam
- 4.Qaychi,pichoqcha
- 5.PVA yelimi
- 6.Dermatin

7.Karton qog`oz

8.Klyonkadan foydalanish mumkin.

Endi traferat va uni tayyorlash texnologiyasi to`g`risida qisqacha tushunchalar beramiz.

**Traferat**-qalin qog`oz, yupqa karton, tunuka, plastmassadan tayyorlanadigan yig`indisi turli murakkablikdagi naqshni yoki biror yozuv tarkib toptiradigan tirkishlar qilingam plastinkadir.Traferatdan ko`p karra takrorlanuvchi rasmlar, harflar, yozuvlarni olishda foydalaniladi.Traferatlar qurilishda, devorlarni bezashda, tayyor mahsulotlar turlarini makirovka qilishda keng qo`llaniladi.Maktab amaliyotida traferatlar qalin rasm qog`ozidan tayyorlanib unga rasm, naqsh, harflar aniq chiziqlar bilan tushiriladi.Har bir detall yonidagi qismlar bilan ko`proq birlashishi lozim.Rasm tushurilgan qog`ozga alifmoy yoki moy laki singdiriladi.Lak yoki alifmoy qurigach, qog`ozning ustini talk bilan artib, rasmni o`yib qirqib olishga kirishiladi.Traferatni bir necha qavat keraksiz qog`oz solingan taxta ustiga qo`yib, qalamtaroshning uchi bilan olib tashlanishi lozim bo`lgan qismlari qirqiladi.Qalamtaroshni qiyalatib ushslash lozim.Mayda detallarni qirqishda chizmalarni tozalashda ishlataladigan nayzasimon qirqish perolaridan ham foydalanish qulaydir.Traferatlar xilma-xil:bir rangli qismlarni va ko`p bo`yoqli tasvirlarni berishga mo`ljallangan bo`lishi mumkin.Ko`p bo`yoqli tasvirlarda rasm ranglar soniga ko`ra qismlarga ajaratiladi.Har bir rangda alohida traferat tayyorlanadi.Ko`p rangli rasmni bajarishda traferatlar qo`llanilish tartibiga muvofiq raqamlanadi.Bundan tashqari ularda rasmning ma`lum qismlarini tekshirib turish maqsadida teshiklar qilinadi, bu teshiklar bo`yalmaydi.Traferat orqali mo`yqalamda bo`yoq beriladi.Bu maqsadda maxsus mo`yqamlardan foydalanish mumkin.

Traferat shablon tayyorlash uchun tasvir chizib olinadi va pichoqda ozgina kesib olib, so`ngra qaychini uzmasdan qirqishga harakat qilinadi.Agar uzib-uzib qirqilsa, tasvir noto`g`ri chiqishi mumkin.Traferat shablon 2 xil usulda bo`ladi:

1.Oddiy traferat shablon-deb bir qismdan iborat bo`lgan tasvirga aytildi.

2.Murakkab traferat shablon-deb uch-to`rt qismdan iborat bo`lgan shaklga aytildi.

Endi “To`tiquish”ni origami usulida yasash va uni traferat shablon yordamida bezash texnologiyasiga to`xtalib o`tamiz.

Amaliy ishni quyidagi tartibda bajaramiz:

1.Kvadrat shaklida qog`oz olamiz.

2.Diogonaliga buklaymiz.

3.Buklangan joydan burma hosil qilamiz.

4.Burma bo`ylab ikki uchi birlashtiriladi.

5.Buklangan qog`ozning har bir uchi orqaga qaytariladi.

6.Qaytarilganda avvalgi diogonalidan oshib ketmasligi kerak.

7.Bosh barmoq orasiga kirgizib ko`rsatgich barmoq bilan buklanadi va uning bosh qismi tayyorlanadi.

Qushchaning umumiy shakli tayyor bo`ldi, bu shakldan o`zingiz xohlagan qushchani yasashingiz mumkin.Shakldagi bo`yalgan joylar qirqilsa, to`tiqush dumi, tumshug`idan qaychida ozgina chimdib, ichki tomonga mayda burmachalar hosil qilinadi, ko`zi chizib qo`yiladi.So`ngra maxsus traferat yordamida to`tiqushni bezash mumkin.Xuddi mana shu texnologiya yordamida boshqa qushlarni ham origami uslida yasab, uni traferat shablon yordamida bezash mumkin.



Demak, boshlang`ich sinflarda mavzu bo`yicha dars ishlanmalari tayyorlab dars o`tilsa darsning sifati oshar, o`quvchilarning ijodkorlik faoliyati rivojlanar ekan.

Ana shu o`rganilgan texnologiyani mustahkamlash maqsadida albatta uyg'a biror qushni origami uslida yasab, uni traferat yordamida bezash vazifasini berish kerak.Masalan kabutar qushini vazifa qilib berganda o`quvchilar albatta qiziqib tayyorlaydilar.Tajriba va kuzatishlar shuni ko`rsatadiki texnologiya darslarini o`tganda mavzu to`g`risida qancha ko`proq material berilsa, o`quvchilarni dars o`zlashtirish darajasi shuncha yaxshi bo`lar ekan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-2021-yillarda O`zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha harakakati strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi o`rganish bo`yicha ilmiy-uslubiy risolasi. Toshkent “Ma`naviyat”2017-yil.
2. O`zbekiston Respublikasi “Ta`lim to`g`risidagi qonuni” Toshkent shahri 2020-yil 23-sentabr O`RQ 637.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O`zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta`lim-tarbiya va ilm-fan sohalarni rivojlantirishning chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-6180-sonli farmoni. Toshkent 6-noyabr 2020-yil.

4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta`lim -tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to`g`risida”gi PQ-4884-sonli qarori.Toshkent 6-noyabr 2020-yil.
5. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagи “Xalq ta`lim tizimini isloh qilish bo`yicha qo`srimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PF-22-sonli farmoyishi. Toshkent sh. 2022-yil 3-fevral. F-22 farmoyishi.
6. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O`zbekistonning 2022-2026-yillarga mo`ljallangan taraqqiyot strategiyasi to`g`risida”gi PF-60-sonli farmoni.Toshkent 2022-yil 28-yanvar.
7. X.Sanaqulov, D.Xodiyeva, M.Satbayeva “Mehnat va uni o`qitish metodikasi” Toshkent-2015.
8. X.Sanaqulov, D.Xodiyeva “Boshlang`ich sinflarda qog`ozdan amaliy ishlar” metodik qo`llanma 2012-yil T.Ipak yo`li poligraf, 2012.
9. X.R.Sanaqulov, Xodiyeva D.P “Boshlang`ich sinflarda tabiiy materillardan amaliy ishlar” o`quv qo`llanma 2019-yil. TDPU.
10. Texnologiya 4-sinf Sh.Muslimova, D.Xudayorova “Novda Edutainment” Toshkent-2023